

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Navoiy viloyati doimiy aholi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 982,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 16,2 ming kishiga yoki 1,7% ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 479,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,8%), qishloq aholisi soni 503,3 ming kishini yoki (51,2 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **16,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **4,3 ming nafami** tashkil etdi.
- **1,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **1,2 mingta nikoh** va **0,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)




### Navoiy viloyati aholisining umumiy osishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil yanvar-mart holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil yanvar-mart holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 195,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %ni) va Qiziltepa tumanida 149,7 ming kishini yoki (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 14,5 ming kishini yoki (1,5 %) va Konimex tumanida 35,5 ming kishini yoki (3,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Xatirchi tumanida 1,8%ni, Qiziltepa tumanida 1,7 %ni, Karmana tumanida 3,4% ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Navoiy shaxrida 0,7 %ni va Tomdi tumanida 0,7 %ni, tashkil etdi.



## Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.

(2019 yil yanvar-mart holatiga)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>		<b>1 km kv ga to'g'ri keladiganlar soni</b>
		<i>Shahar aholisi</i>	<i>Qishloq aholisi</i>	
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>982629</b>	<b>479320</b>	<b>503309</b>	<b>8,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Navoiy</b>	<b>136574</b>	<b>136574</b>	<b>-</b>	<b>2732,0</b>
<b>Zarafshon</b>	<b>82721</b>	<b>82721</b>	<b>-</b>	<b>4135,0</b>
<i>tumanlar:</i>				
<b>Karmana</b>	<b>128556</b>	<b>44253</b>	<b>84303</b>	<b>135,4</b>
<b>Konimex</b>	<b>35118</b>	<b>15748</b>	<b>19370</b>	<b>3,8</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>149658</b>	<b>47904</b>	<b>101754</b>	<b>68,4</b>
<b>Navbahor</b>	<b>111109</b>	<b>16022</b>	<b>95087</b>	<b>70,8</b>
<b>Nurota</b>	<b>91290</b>	<b>54334</b>	<b>36956</b>	<b>14,0</b>
<b>Tomdi</b>	<b>14522</b>	<b>4717</b>	<b>9805</b>	<b>0,3</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>37143</b>	<b>32324</b>	<b>4819</b>	<b>0,8</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>195938</b>	<b>44723</b>	<b>151215</b>	<b>138,0</b>

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil yanvar-mart holatiga aholining ehg ko'p shahar joylardagi ulushu Nurota tumanida 11,3% ni, va Qiziltepa tumanida 10,0 %ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining uluhi Tomdi tumanida 1,0 %ni, va Navbahor tumanida 3,3 %ni tashkil etadi.

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil yanvar-mart holatiga aholining ehg ko'p qishloq joylaridagi ulushu Xatirchi tumanida 30,0% ni, va Qiziltepa tumanida 20,2 % ni, aksincha eng kam qishloq aholi sonining ulushi Uchquduq tumanida 1,0 % ni, va Tomdi tumanida 1,9 % ni tashkil etadi.



## AHOLINING TABIIY HARAKATI 2019 YIL YANVAR-MART


	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishlga</i>	
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.<sup>1)</sup></i>	<i>o'sish, kamayish</i>	<i>2018y.</i>	<i>2019y.<sup>1)</sup></i>
<b>Tug'ilganlar</b>	4175	4250	75	17.6	17.6
<b>O'lganlar</b>	993	998	5	4.2	4.1
<b>Tabiiy o'sish</b>	3182	3252	70	13.4	13.5
<b>Nikohlar</b>	1158	1223	65	4.9	5.1
<b>Ajralishlar</b>	246	223	-23	1.0	0.9

Tug'ilishlar soni **4250** kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **75** kishiga o'sganligini ko'rsatmoqda.

O'lganlar soni **998** kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **5** kishiga o'sganligini ko'rsatmoqda.

Nikohlar soni esa **1223** kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **65** kishiga oshganligi kuzatildi.

Ajrimlar soni **223** kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **-23** kishiga kamayganligi kuzatildi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 4250 bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), o'tgan yilga mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,6 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 17,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Uchquduq (20,3 promilledan 21,3 promillega) va Xatirchi (18,4 promilledan 19,2 promillega), Karmana (17,6 promilledan 18,6 promillega), Navbahor (16,5 promilledan 17,5 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Tomdi (12,7 promilledan 7,3) va Qiziltepa (16,4 promilledan 15,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



### Aholining tabiiy harakati 2019 yil yanvar-mart (kishida)

	Tug'ilganlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4175</b>	<b>4250</b>	<b>101.8</b>
<b>Navoiy sh.</b>	589	611	103.7
<b>Zarafshon sh.</b>	366	350	95.6
<b>Karmana</b>	538	588	109.3
<b>Konimex</b>	140	146	104.3
<b>Qiziltepa</b>	595	562	94.5
<b>Navbahor</b>	444	479	107.9
<b>Nurota</b>	404	369	91.3
<b>Tomdi</b>	45	26	57.8
<b>Uchquduq</b>	185	195	105.4
<b>Xatirchi</b>	869	924	106.3

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 998 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan -0,1 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,2 promille bo'lgan). O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Nurota (3,8 promilledan 4,8 promillega), Uchquduq (3,6 promilledan 4,4 promillega) va Xatirchi (4,0 promilledan 4,2promillega) tumanlarida o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Zarafshon shaxrida 4,2 promilledan 2,8 promillega), Navoiy shaxrida (5,1 promilledan 4,3 promillega), Konimex (7,2 promilledan 5,0 promillega), Tomdi (5,1 promilledan 3,1 promillega), Qiziltepa (4,2 promilledan 3,7 promillega), Karmana (4,4 promilledan 3,6 promillega), tumanlarida kuzatildi.



### Aholining tabiiy harakati 2019 yil yanvar-martda


	O'lganlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>993</b>	<b>998</b>	<b>100,5</b>
<b>Navoiy sh.</b>	170	145	85,3
<b>Zarafshon sh.</b>	84	58	69,0
<b>Karmana</b>	133	133	100,0
<b>Konimex</b>	24	43	179,2
<b>Qiziltepa</b>	154	136	88,3
<b>Navbahor</b>	104	124	119,2
<b>Nurota</b>	85	107	125,9
<b>Tomdi</b>	18	11	61,1
<b>Uchquduq</b>	33	40	121,2
<b>Xatirchi</b>	188	201	106,9

## Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,7 %i o'simtalardan, 5,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 32 kishini tashkil etib shundan 59,4%i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 6,3%i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,4%i tug'ma anomaliyalardan, 6,3%i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 18,6%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



## Demografik holat

**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etdi. 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'paydi. (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,9 promille bo'lgan). Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mosdavriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Zarafshon shaxrida (123%) Qiziltepa (119,7%), Xatirchi (104,7%), Karmana (103,7%) tumalariga to'g'ri kelmoqda.



### Aholining tabiiy harakati 2019 yil yanvar-martda

	Tuzilgan nikohlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati (%) da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1158</b>	<b>1223</b>	<b>105,6</b>
<b>Navoiy sh.</b>	184	197	107,1
<b>Zarafshon sh.</b>	81	100	123,5
<b>Karmana</b>	162	168	103,7
<b>Konimex</b>	42	39	92,9
<b>Qiziltepa</b>	173	207	119,7
<b>Navbahor</b>	110	105	95,4
<b>Nurota</b>	79	81	102,5
<b>Tomdi</b>	16	15	93,7
<b>Uchquduq</b>	53	41	77,4
<b>Xatirchi</b>	258	270	104,7

## Demografik holat

### Aholining tabiiy harakati 2019 yil yanvar-martda

**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 223 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Konimex (157,7%), Uchquduq (128,6) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



	Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati (%) da
<b>Navoiy viloyati</b>	246	223	90,7
<b>Navoiy sh.</b>	65	55	84,6
<b>Zarafshon sh.</b>	22	17	77,3
<b>Karmana</b>	30	26	86,7
<b>Konimex</b>	7	11	157,1
<b>Qiziltepa</b>	32	28	87,5
<b>Navbahor</b>	17	18	105,6
<b>Nurota</b>	13	10	76,9
<b>Tomdi</b>	5	1	20,0
<b>Uchquduq</b>	14	18	128,6
<b>Xatirchi</b>	41	39	95,1



## Demografik holat

### Aholi migratsiyasi (kishida)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3340	2706
<b>Ko'chib ketganlar</b>	3238	2865
<b>Migratsiya saldosi</b>	102	-159



## Demografik holat

	Aholi migratsiyasi (kishida)		
	2018 yil Ko'chib kelganlar	2019 yil ko'chib kelganlar	O'sish sur'ati (%) da
<b>Navoiy viloyati</b>	3341	2706	81,0
<b>Navoiy sh.</b>	754	630	83,6
<b>Zarafshon sh.</b>	443	362	81,7
<b>Karmana</b>	737	617	83,7
<b>Konimex</b>	99	84	84,8
<b>Qiziltepa</b>	141	173	122,7
<b>Navbahor</b>	269	203	75,5
<b>Nurota</b>	208	122	58,7
<b>Tomdi</b>	97	120	123,7
<b>Uchquduq</b>	235	120	51,1
<b>Xatirchi</b>	358	275	76,8

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2019** yil yanvar-mart holatiga kuchib kelgan yuqori bolgan tumanlar **2018** yilning mos davriga nisbatan Tomdi tumanida 123,7%ni, Qiziltepa tumanida 122,7%ni, aksincha eng kam ko'chib kelganlar bo'yicha Uchquduq tumanida 51,1%ni, Nurota tumanida 58,7%ni, Navbahor tumanida 75,5%ni, Xatirchi tumanida 77,0%ni, Zarafshon shaxrida 81,7%ni, Karmana tumanida 83,7%ni va Konimex tumanida 84,8%ni tashkil etdi.

## Demografik holat

	Aholi migratsiyasi (kishida)		
	2018 yil Ko'chib ketganlar	2019 yil ko'chib ketganlar	O'sish sur'ati (%) da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3238</b>	<b>2865</b>	<b>88,5</b>
<b>Navoiy sh.</b>	1043	896	85,9
<b>Zarafshon sh.</b>	400	416	104,0
<b>Karmana</b>	325	223	68,6
<b>Konimex</b>	92	101	109,8
<b>Qiziltepa</b>	214	164	76,6
<b>Navbahor</b>	232	202	87,1
<b>Nurota</b>	190	114	60,0
<b>Tomdi</b>	47	64	136,2
<b>Uchquduq</b>	289	272	94,1
<b>Xatirchi</b>	406	413	101,7

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
Nashr uchun mas'ul: **F.Xikmatova**

(0 436) 223-07-41